

**IQTISODIY INTEGRATSIYA JARAYONI RIVOJLANISHINING
XUSUSIYATLARI VA SHART-SHAROITLARI**

Sodikov Zokir Rustamovich,

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya: Bu maqolada iqtisodiy integratsiya nazariyasining rivojlanish shart-sharoitlari va unga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan.

Tayanch so'zlar: Iqtisodiy integratsiya nazariyasi, iqtisodiyot, jahon bozori, eksport, import, tashqi savdo, xorijiy investitsiyalar, tashqi iqtisodiy aloqalar.

Milliy iqtisodiyotning jahon bozoriga integratsiya bo'lishi afzalliklar va manfaatlar ta'sirida kelib chiqadi. Jahon bozoriga integratsiya jarayoni milliy xo'jalik o'rtasidagi aloqalarning rivojlangan va takomillashgan bosqichi bo'lib, unda mamlakat iqtisodiyotlarining barcha tarmoq va sohalarining o'zaro qo'shib, yaxlitlanib borishi kuzatiladi. Shu bois iqtisodiy integratsiya faqat nazariy masala bo'lmasdan, iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida namoyon bo'ladigan jarayon hisoblanadi. Iqtisodiy integratsiya darajasini milliy iqtisodiy ko'rsatkichlarning jahon bozoriga bog'liqligi ko'rsatadi. Mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmining ortishi eksport salohiyatining kengayishiga va milliy daromadning ko'paytirib import hajmining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatish orqali jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvni mustahkamlaydi.

Iqtisodiy integratsiya darajasini yalpi ichki mahsulot va sanoat ishlab chiqarishiga nisbatan tashqi savdo hajmi, eksport va import, uning tovar va xizmatlar tarkibi ifodalaydi. Shuningdek, jami investitsiyada xorijiy investitsiyaning ulushi, milliy ishlab chiqarishda xorijiy investitsiyalarning o'rnini, milliy bandlikning jahon bozoriga bog'liqligi va boshqa ko'rsatkichlar belgilab beradi. Iqtisodiy integratsiya jarayoni chuqurlashuvi bilan mamlakatlarning jahon bozoriga bog'liqlik darajasi ortib boradi va u ko'rsatkichlarni o'ziga xos guruhlash mumkin. Jahonda tovar va xizmatlar ortiqcha taklif qilingan bozorlardan talab kuchli bo'lgan mamlakatlar bozori tomon oqadi. Natijada jahonda milliy ishlab chiqarish va iste'mol bozorlari tabiiy ravishda har tomonlama integratsiyalashadi.

Milliy narxlar ham mamlakatning jahon bozoriga integratsiyalashuv darajasini ifodalaydi. Milliy bozorlari integratsiyalashgan davlatlarda narxlar yoki narx indekslarining o'zaro nisbati shakllanadi. Buni yagona valyuta birligidan foydalanuvchi mamlakatlar vaziyati asoslaydi. Ushbu mamlakatlardan birida narx o'zgarsa, qolganlariga ham ta'sir ko'rsatadi yoki \$dan jahondagi savdo operatsiyalarida keng foydalanilganligi uchun AQSh dagi iqtisodiy vaziyat va \$ning inflyatsiyasi ko'pchilik milliy pullarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Erkin iqtisodiyot tizimi ochiq iqtisodiyot asosida barpo etilishi va rivojlantirilishi ma'lum. Bu esa milliy bozorning jahon xo'jaligiga yoki boshqa mamlakatlar bozoriga qo'shilishi demakdir. Ochiq iqtisodiyotda milliy daromad (MD) muvozanati yalpi talab bilan yalpi taklif tenglashgan nuqtada ta'minlanadi. Bunda yalpi talab ikki qismga, ya'ni iste'mol (S), investitsiya (I) va davlat xarajatlari (G) ichki talabni, eksport (X) bilan import (M) esa tashqi talabni ifodalaydi. Xorijga eksport, bu mamlakatda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga xorijliklarning xarajati bo'lib, u mamlakatning daromadiga ulush qo'shish bo'ladi. Xorijdan import esa mamlakat fuqarolarining chet el tovar va xizmatlariga xarajatini ifodalaydi. Bunda xorijliklarning mamlakatdagi daromad oqimiga sof ta'siri eksport bilan import (X-M) o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi. Yalpi milliy mahsulotga nisbatan eksport hajmining ortishi ishlab chiqarish, import hajmining ortishi esa iste'mol bo'yicha milliy bozorning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi chuqurlashayotganligini ko'rsatadi.

Mamlakatlar iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish uchun ishlab chiqarish va eksportni kengaytirish orqali milliy daromadni ko'paytiradi. Natijada import hajmi ham ortadi. Chunki import bilan milliy daromad o'rtasida to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, iste'mol singari, milliy daromad oshganda importning ham ko'payishi kuzatiladi. Import bilan milliy daromad o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlik import funksiyasi bo'lib, unga ishlab chiqarish uchun tashqi bozor resurslariga ehtiyoj va yalpi xarajat yoki milliy talabning bir qismini importga yo'nalishi sabab bo'ladi. Import talabining daromadga nisbatan elastikligi ham tashqi savdo hajmiga ta'sir ko'rsatadi va uni quyidagi formulada ifodalash mumkin:

$$e = \frac{\Delta M}{M} : \frac{\Delta Y}{Y}$$

Bunda: e - elastiklik, M - import,

$$e = \frac{\Delta X}{X} : \frac{\Delta Y}{Y}$$

Bunda: e - elastiklik, X - eksport, ΔX - eksportdagi o'zgarish,

Y - yalpi milliy mahsulot, ΔY - yalpi milliy mahsulotdagi o'zgarishni ifodalaydi.

Ochiq iqtisodiyotda milliy daromadning bir qismi ichki tovar va xizmatlarga, bir qismi import tovar va xizmatlarga xarajat qilinsa, qolgani jamg'arib boriladi. Shuning uchun bozor munosabatlarida marjinal (me'yoriy) iste'mol (MPC), marjinal (me'yoriy) import (MPM) va marjinal (me'yoriy) jamg'arish (MPS) moyilliklari

yig'indisi birga teng ($MPC + MPM + MPS = 1$) bo'ladi. Ochiq iqtisodiyotda milliy daromad muvozanati yalpi xarajat bilan yalpi ishlab chiqarish tenglashganda ta'minlanadi. Bu formulada quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = C(Y) + I + X - M(Y), \text{ yoki } Y - C(Y) = S(Y)$$

Bunda: Y - yalpi milliy mahsulot, C - iste'mol, I – investitsiya,

X – eksport, M – import, S - jamg'arma.

Yuqorida keltirilgan formulani quyidagicha ham ifodalash mumkin:

$$S(Y) + M(Y) = I + X \text{ yoki } S(Y) - I = X - M(Y) \text{ bo'ladi.}$$

Bu formulaning chap qismida jamg'arma bilan importdan iborat yalpi xarajat, o'ng qismida investitsiya va eksport yig'indisi berilgan. Bu tenglamada jamg'arma bilan investitsiyaning farqi, eksport bilan import farqiga bog'liq bo'lmoqda. Bundan tashqari mamlakatlar YMM larining o'zaro bog'liqligi borasida olib borilgan tadqiqotlarda, geografik jihatdan qo'shni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi mutanosib davlatlarda iqtisodiy aloqalar rivojlanganligi, bozorlarning chuqur integratsiyalashganligi kuzatilgan. Demak, mamlakatlarning integratsiyasini YMMlari o'sishdagi mutanosiblik ham asoslaydi.

Milliy iqtisodiyotlari to'liq va keng ko'lamli integratsiyalashgan mamlakatlarning bandlik va ishsizlik muammolari borasida olib borilgan tadqiqotlarda o'zaro bog'liqlik mavjudligi isbotlangan. Chunki mamlakatlardan birida ishsizlik tufayli talab hajmi qisqarsa, bu integratsiya doirasidagi mamlakatlar eksportining kamaytiradi. Natijada integratsiya hududida tashqi savdoning qisqarishi ishlab chiqarishni pasaytiradi va ishsizlikni ko'paytiradi. Shuningdek, integratsiya hududidagi biror mamlakatda imkoniyatlar kengayib bandlikning oshishi, qolgan mamlakatlar tashqi savdosini rag'batlantirib, ishlab chiqarish va bandligini kengaytiradi. Iqtisodiy jarayonlar mamlakatlarning qimmatli qog'ozlar bozori baynalmilallashganligini ko'rsatadi. Milliy bozorlari integratsiya bo'lgan mamlakatlardagi jamg'armalar hududdagi eng yuqori daromad keltiradigan mamlakatning moliya bozoriga joylashtiriladi. Natijada investitsiya harakati erkin va cheklovlar yo'qligi uchun qaysi mamlakat moliya bozorida foydalilik koeffitsienti ortsa, jamg'armalar o'sha tomonga oqadi va integratsiya hududida daromadlar mutanosiblashadi. Milliy bozorlardagi o'zgarishlarning xalqaro savdo jarayoniga ta'siri integratsiyaning ko'rsatkichi hisoblanadi. Bunda tovarlarning ortiqcha taklif qilingan joylardan, talabi qondirilmagan mamlakatlar tomon harakati kuzatiladi. Bu jarayonning ob'ektlarini tovar va moliya resurslari sifatida alohida ajratish mumkin. Mamlakatdagi sof tovar oqimi importning eksportga nisbatiga bog'liq bo'ladi.

Jamiyatda ortiqcha tovar talabi real daromadning ko'payish hisobiga kelib chiqadi. Demak, importning ko'payishi milliy daromadning oshishi, eksport hajmining ortishi esa jahon iqtisodiyotidagi rivojlanish natijasida sodir bo'ladi.

Moliyaviy resurslarning xalqaro harakati valyuta va qimmatli qog'ozlar ko'rinishida bo'lib, u milliy bozorlarda nominal daromatlarning tenglashtirish tendensiyasiga ega. Valyuta va qimmatli qog'ozlar ham tovar singari ortiqcha taklif qilingan bozordan talabi mavjud bozorlarga yo'naladi. Moliyaviy aktivlarning xalqaro harakati, ularning nominal foiz stavkasining jahon miqyosida mutanosiblashtiradi. Shuningdek, amaliy jarayonlar valyuta bozorini bir mamlakat tomonidan nazorat qilib bo'lmasligini, jahon bozori qimmatli qog'ozlar nominal foiz stavkasining mutanosiblashtirishga imkoniyat yaratishini ko'rsatadi, ya'ni, bu bozorlar chuqur integratsiyalashgan. Milliy bozorlarda narxlar nisbati shakllangani kabi integratsiya bo'lgan mamlakatlar o'rtasida ham narxlar mutanosibligining vujudga kelishi samarali jarayon hisoblanadi. Shu bois, nazariyalarda to'liq integratsiya uchun jahon bozorida daromad va foydaning eng yuqori darajaga chiqaradigan narx shakllanishi zarurligi ta'kidlanadi. Zero, integratsiya jarayonida narx nisbati to'g'ri shakllanmasa, daromad taqsimoti maqbullashmaydi va bozorlar o'z-o'zidan alohidalashadi.

Milliy bozorning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvida «Birinchisi eng yaxshi siyosat» va «Ikkinchi eng yaxshi siyosat» ning o'ziga xos ahamiyati mavjud. Jahonda yuksak iqtisodiy taraqqiyotga va farovonlikka erkin iqtisodiy munosabat va mukammal raqobat asosida erishish mumkinligi nazariy jihatdan asoslangan. Xalqaro amaliyotda iqtisodiy munosabatlarning erkin bozor mexanizmi asosida namoyon bo'lishi «Birinchisi eng yaxshi siyosat» sifatida ifodalanadi. Bu individual xarajat bilan umumiy xarajatni yoki individual manfaat bilan umumiy manfaatni maqbullashuvini talab etadi. Lekin, amalda bunga erishishga tabiiy- iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlar yo'l qo'ymaydi. Shu bois, davlatlar turli ijtimoiy maqsadlarni inobatga olib tadbirlar belgilaydi. Bu yondashuv nazariyada «Ikkinchi eng yaxshi siyosat» sifatida ta'riflanmoqda.

Jahon bozorida «Birinchisi eng yaxshi siyosat» amalga oshmagach, maqbul usul sifatida «Ikkinchi eng yaxshi siyosat»ni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu xalqaro miqyosda iqtisodiy integratsiya sifatida yuzaga chiqadi. Zero, iqtisodiy integratsiya bo'lmasa, shu iqtisodiy integratsiya tufayli erishiladigan farovonlik ham kelib chiqmasdi. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi industrial mamlakatlarnikidan katta farq qiladi, ya'ni, ular ko'proq agrar soha va xomashyo borasida afzallikka ega. Shu bois bu mamlakatlar ishlab chiqarishini tashqi raqobatdan himoyalash maqsadida tadbirlar belgilab, iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishini cheklaydi.

Hozirda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning axborot texnologiyalari tufayli jadal rivojlanib borishi mamlakatlarning tarmoq va sohalar bo'yicha ixtisoslashuvining chuqurlashtirib, milliy ishlab chiqarish tizimining baynalmilallashuviga zamin yaratmoqda. Shuningdek, davlatlar bir tomondan tashqi bozorning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish uchun qanchalik harakat qilsa, ikkinchi tomondan, jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning ta'sirini ham shunchalik his qiladilar. Iqtisodiy integratsiya milliy xo'jaliklar uchun erkin iqtisodiy munosabatdan keyin muhim ahamiyat kasb etganligi bois, barcha mamlakatlar ichki iqtisodiy imkoniyatlari bilan birga tashqi bozorlardan ham foydalanish uchun bu masalaga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Shu bois iqtisodiy integratsiya jarayoni nazariy, tashkiliy va amaliy jihatdan muntazam ravishda rivojantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni (28.01.2022-yil, PF-60-son).
2. Tuxliyev N. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida yangi trendlar. Monografiya. – T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2021. – 72 bet.
3. Seyidog'lu H. Uluslararası iktisat. Darslik. -Istanbul: "Guzem Can Yayinlari", 2012. 820 s.
4. Salvatore, Dominick. International economics. Printed in the USA /. – 13th ed. 2019. 720 p.
5. Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, and Marc J. Melitz. International economics: theory & policy/12th Edition/USA. Permissions Department, 501 Boylston Street, Suite 900, Boston, MA 02116, 2022.